

This is not registered version of TotalDocConverter

Tog' yaqinida registrlanmagan qishloq bo'lgan qishloqning buzuvchi binosida o'n uch yoshlik Oyxon otlik bir qiz turar edi. Oyxonning ota-onasi ocharchilik yilida - bundan to'rt yil burun o'lgan edilar. Boyaqish Oyxon besh yoshlik Turdiboy degan ukasi bilan qo'sh yetim bo'lgan edi. Turdiboyni onasi kabi boqar edi. Qish chog'i kelmish, besh haftadan beri qor butun yer yuzini qoplamish va tevarak oppoq qor bilan chulg'anmish edi. Oyxon onasidan bir necha marta: "Qish kunlarda bo'rilar och qolsalar, qishloqqa keladilar-da, tomoq izlaydilar", deb eshitgan edi. Faqat bu ham tomoq topmoq uchun tashqariga chiqmoqqa majbur edi. Bir kun ertalab Oyxon non olmoq uchun bozorga bordi. Non olib, uyiga yaqinlashgan chog'da qo'rqinchli tovushlar, ukasining baqirgan-chaqirgan ovozi eshitildi. Oyxon chopib uyga kirdi. Ukasiga yugurmoqda bo'lgan bo'rini ko'rdi. Bor kuchi bilan borib, ukasini quchoqlab olib, og'zi ochiq turgan sandiqqa soldi, chap qo'li bilan sandiqni bosib turdi. Oyxon ukasini qutqarmoqdan boshqa bir narsa tushunmas, orqasidan kulib, sevinib kelayotgan beshta bo'rini ko'rmas edi. Bo'rilar birdan uy ichiga kirdilar-da, Oyxonga yugura boshladilar. Oyxon bor kuchi bilan haydamoq istar edi, lekin bo'rilar har tomondan irillab, yugurushib, tishlab tortishar edilar. Oyxon tanidan oqqan qon bilan sekin-sekin kuchdan ketib, yiqila boshlaganin anglar-anglamas sandiqdan uzoqlashdi, eshik oldigacha bordi. Ortiq bo'rilar xursand edilar. Bu g'ayratli qiz eshik oldida kuchdan qolib yiqildi. Och bo'rilar boyaqish qizni yeb bitirdilar.

Bir necha soatdan so'ng uyiga kelgan qishloqliklar ko'rdilarki, Turdiboy sandiqning ichida pish-pish uxlab yotibdir. Bechora Oyxon o'z jonini sevikli ukasining o'rniga qurbon qilmishdir.